

JIZZAX VILOYATIDAGI QIZIL KITOBGA KIRITILGAN OOQIO‘TDOSHLAR (*ASTERACEAE BERCHT. & J. PRESL*) OILASI VAKILLARINING BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

Azimova Dilnoz Ergashevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

dilya_7662323@mail.ru

Sharipova Mohistara Hamdam qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi

Do‘stqulov O‘ral Asliddin o‘gli

Jizzax davlat pedagogika universiteti, magistr

Xidoyatullayev Asliddin Ne‘matulla o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Qizil kitob” haqida, unga kiritilgan o‘simliklar, kiritish tartiblari, ular haqida ma’lumotlarning qay tarzda keltirilishi haqida aytib o‘tilgan. Undan tashqari Jizzax viloyati hududida o‘sadigan Qizil kitobga kiritilgan Qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae Bercht. & J. Presl*) oilasi vakillarining uchrash joylari, ularning biologiyasi va ekologiyasi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae Bercht. & J. Presl*), Qizil kitob, status, fenologiya.

Tirik organizmlarning klassifikatsiyasini shakllantirishda olimlar tarixiy taraqqiyot davomida o‘simliklar va hayvonlarning juda ko‘p turlari qirilib ketganligini aniqlashgan. Inson tomonidan ularning qirib tashlanishi, yashash joylarining buzib tashalanishi shunga olib keldiki, natijada ularning ko‘pchiligi kamyob va muhofazaga muhtoj bo‘lib qoldi. TMQHI tashabbusiga ko‘ra il bor 1966-yilda muhofaza qilinishi kerak bo‘lgan turlarni o‘z ichiga olgan xalqaro “Qizil kitob” nashr etildi. O‘zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o‘simlik hayvonlari haqidagi dastlabki ma’lumotlar 1979-yil ta’xis etilgan “Qizil kitob” da o‘z aksini topgan. O‘zbekiston “Qizil kitob” ining o‘simliklar olamiga bag‘ishlangan qismi 1984-yil nashr qilingan va unga 163 tur o‘simlik kiritilgan. “Qizil kitob” davriy nashr hisoblanadi. Unga kiritilgan o‘simliklar va hayvon turlariga Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan kamyobligiga ko‘ra 4 maqom (status) berildi. Jizzax viloyatida o‘simliklarning 52 turi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Ulardan 0 kategoriyasining 1 turi (ehtimol yo‘q bo‘lib ketishi mumkin), 1 toifadagi 14 turdagi (yo‘qolib ketish xavfi ostida), 2 toifadagi 29 ta (kam uchraydigan) va 3-toifadagi 8 ta tur (kamayib ketgan), Qizil kitobning kiradigan 52 turidan 46 tasi qo‘riqxonalar va milliy bog‘larda va 6 tasi muhofaza qilingan



hududlarda himoya bilan ta'minlanmagan. Jizzax viloyatida Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan (IUCNRedList) o'simliklarning 9 turi mavjud, ulardan faqat bittasi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan - IUCNRedList.

Qoqio'tdoshlar oilasi (*Asteraceae Bercht. & J. Presl*)- bu eng katta oila bo'lib, unga 1300 ga yaqin turkumga mansub 25000 tur kiradi. O'zbekistonda 121 turkumga oid 566 tur o'sadi. Hayotiy shakliga ko'ra oilada bir va ko'p yillik o'tlar ustunlik qiladi. Daraxt, buta va lianlar nihoyatda kam uchraydi. Bu oila vakillarining barglari oddiy, poyada asosan ketma-ket, ba'zan qarama-qarshi joylashgan. Barg yaprog'i butun (kungaboqar), ba'zan patsimon bo'lingan (shuvoq). Gullari savatchalarda o'rinishgan. Qoqio'tdoshlarning muhim belgisi to'pgullarining savatcha shaklida bo'lishidir. Savatch sirtidan bir yoki bir necha qator, turli shakldagi o'rama bargchalar bilan qoplangan. Qoqio'tdoshlarning ko'pchiligida savatchalar, o'z navbatida shingil, ro'vak, qalqon va boshcha to'pgullarga o'rinishib, murakkab to'pgul hosil qiladi. Mevasi-pista meva.

Bu oila vakillari gul tuzilishiga qarab 2 ta oilachaga bo'linadi

1. Sutcho'pdoshlar (*Lactucoideae*) oilachasi. Bu oilacha vakillarining to'pguli (savatchasi) asosan tilsimon gullardan tashkil topgan. Oilachaga O'zbekistonda keng tarqalgan va turlarga boy turkumlardan: sutcho'p (*Lactuca*), tog'saqich (*Scorzonera*), takasoqol (*Trogopogon*), sachratqi (*Cichorium*), karrak (*Cousinia*), bo'tako'z (*Centaurea*)larning vakillari kiradi.

2. Qoqio'tdoshlar (*Asterideae*) oilachasiga kiruvchi turlarning savatchasi asosan naychasimon gullardan iborat. Bu oilachaga quyidagi turkumlar kiradi: oqqaldirmoq (*Tussilago*), tirnoqgul (*Calendula*), qo'qongul (*Zinnia*), kungaboqar (*Helianthus*), kartoshkagul (*Dahlia*), dovudgul (*Tagetes*), bo'yumodaron (*Achillea*), moychechak (*Chamomilla*), xrizantema (*Dendranthema*), shuvoq (*Artemisia*), andiz (*Inula*), qoqio't (*Tararacum*) va boshqalar.

Jizzax viloyati florasidagi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan Qoqio'tdoshlar (*Asteraceae Bercht. & J. Presl*) oilasining turlari

№	Tur, oila	Hudud	Katego riya	Jizzax viloyatida mahalliy aholining joylashishi
1	<i>Anura pallidivirens</i> (M. Kult.) Tscherneva, анура бледнозеленая, яшил анура (<i>Asteraceae</i>)	Nurota davlat qo'riqxona si	1	Nuratau (Uchmasay, Kulbasay, Gurdara, Mehayansay, Asrafsoy, Qorakulsoy, Bolosay, Karsay, Tichchasoy, Hayatsay, Andgensay, Majerumsay). Koytash (Narvansay, Yamchischay, Ilonchisay).Malguzar (Tamerlane darasi)
2	<i>Cousinia dshizakensis</i> Kult., кузиния джизакская, Жиззах карраги (<i>Asteraceae</i>)	Zomin davlat qo'riqxona si	2	Nurota tog' tizmasi. Molguzar tizmasi.
3	<i>Cousinia haesitabunda</i> Juz., кузиния сомнительная, шубхали каррак (<i>Asteraceae</i>)	Zomin davlat qo'riqxona si	1	Molguzar tizmasi



4	<i>Helichrysum nuratavicum</i> Krasch., бессмертник нуратавский, нуратавский, Нурота ўлмасўти (<i>Asteraceae</i>)	Nurota davlat qo'riqxonasi	2	Nuratau (Majerumsoy, Andgensay, Xayatsoy, Tichhasoy, Karsay, Bolosay, Dushak)
5	<i>Jurinea zakirovii</i> Iljin, наголоватка Закирова, Зокиров юриняси (<i>Asteraceae</i>)	Nurota davlat qo'riqxonasi	1	Nurota tizmasi
6	<i>Lepidolopha nuratavica</i> H. Krasch., лепидолофа нуратинская, Нурота лепидолофаси (<i>Asteraceae</i>)	Nurota davlat qo'riqxonasi	1	Nurota tizmasi, Molguzar tizmasi (Temurlang darvozasi)
7	<i>Serratula lancifolia</i> Zakirov, серпуха ланцетолистная, наштарсимон серратула (<i>Asteraceae</i>)	Zomin davlat qo'riqxonasi	1	Turkiston tizmasi (O'riklisoy), Molguzar tizmasi

Jizzax viloyatidagi O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan Qoqio'tdoshlar (*Asteraceae* Bercht. & J. Presl) *oilasi vakillari bilan tanishamiz.*

***Arctium pallidivirens* (Kult.) S. López, Romaschenko, Susanna & N. Garcia (=Anura pallidivirens (Kult.) Tscherneva)** Fl. URSS XXVII: 107, 1962. Анура бледнозеленая – Yashil anura. Kamyoblik darajasi 1. (Короткова, n^o61, 1947). Nurota tog'laridagi kamyob, endem tur. Tog'ning quyi va o'rta qismida toshli, shag'alli, mayda jins tuproqli yonbag'irlarda o'sadi. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi. Molguzar tizmasining eng g'arbiy qismida uchraydi: "Мальгузарский хребет, близ Ворот Тамерлана, правая сторона р. Санзар, на щебнистых склонах. n^o 61. 28.VI.1947. Короткова".

***Cousinia dshisakensis* Kult.** – Jizzax karragi. Kamyoblik darajasi 2. Pomir-Oloydagi kamyob, endem tur. Tog'larning o'rta va pastki qismlarida shag'alli yonbag'irlarda hamda qoyalar tagida o'sadi. Molguzar tizmasining Temur darvozasi hamda Zomin-suv daralarida tarqalgan "По дороге от к. Заамин на кишлак Ачи. 1931.VI.16. n^o306, Кобранова; Мальгузарские горы, Тамерлановы Ворота, 17.V.1980. n^o9, Набиев, Казакбаев, Шерматов, Левичев, Долина р. Зааминсу, скалы у дороги. 15.V.1970. sn, Бутков".

***Cousinia haesitabunda* Juz.** – Shubhali karrak. Kamyoblik darajasi 1. G'arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan juda kamyob, endem tur. Tog'larning quyi qismidagi shag'alli, tosh-shag'alli yonbag'irlarda o'sadi. Molguzar tizmasining Besh-kubi qishlog'i atrofidan aniqlangan: "Окрестность Бешкуби, 12.V.1938. sn. Демурина".

***Serratula lancifolia* Zakirov** – Nashtarsimon serratula. Kamyoblik darajasi 1. G'arbiy Pomir-Oloydagi juda kamyob, endem tur. Tog'larning o'rta qismidagi mayda jinsli yonbag'irliklarida o'sadi. O'zbekiston Qizil kitobida [35; 320-321-b.] va «Определителе растений Средней Азии» [13] Molguzar tizmasi uchun berilgan, ammo o'sish joyi aniq emas.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyatidagi nafaqat yurtimizning hamma viloyatlarida o'sadigan O'zbekiston Respublikasi "Qizil kobi"ga kiritilgan o'simliklarni muhofaza qilishni kuchaytirish va ularni ko'paytirish ishlarini olib borish lozim. Qoqio'tdoshlar (*Asteraceae* Bercht. & J. Presl) oilasining Jizzax viloyati hududidan kiritilgan 7 ta turini ham ko'zdan chetga qoldirmaslik kerak.



Adabiyotlar:

1. A.G'afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova. Biologiya 11-sinf darslik. Toshkent-2018
2. F.O' .Xasanov "O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. O'simliklar" 1-tom Toshkent-2016
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 17-iyuldagi PQ-3861-son qarori.
4. Бешко Н.Ю. Флора Нуратинского заповедника: Дис. ...канд. биол. наук. – Ташкент: 1999. – 45-49 с
5. Азимова Д.Э. Молгузар тизмасининг флораси: дис. ...канд.биол. наук. – Тошкент: 2018. – 198 б.

